# BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

**Abdusamiyev Dilmurod Abdug’ani o’g’li**
*Turan International University dotsenti,*
*pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*
*https://orcid.org/0009-0000-0934-5783*
*email: abdusamiyev1993@bk.ru*
*Tel: +(94) 152 58 68*

**Annotatsiya**: *Maqolada boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasini shakllantirish jarayoni, uning pedagogik va psixologik jihatlari hamda samarali rivojlantirish omillari tahlil etilgan. Shuningdek, o’qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari, kasbiy motivatsiyasi, o’zini-o’zi anglash hamda zamonaviy interaktiv ta’lim usullarini pedagogik faoliyatda samarali qo’llash imkoniyatlari asoslanib, o’qituvchilarning professional salohiyatini oshirish va ularning ta’lim jarayonidagi rolini kuchaytirish uchun pedagogik-psixologik qo’llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so’zlar**: *kasbiy identifikatsiya, pedagogik psixologiya, boshlang’ich sinf o’qituvchilari, professional rivojlanish, ta’lim metodlari, psixologik qo’llab-quvvatlash.*

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sifatida shaxsiy va professional jihatdan o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlash, ta’lim jarayonida bolalarga to‘liq va samarali yondoshuvni taqdim etishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchining kasbiy identifikatsiyasi uning kasbiy qoniqishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va pedagogik samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. O‘qituvchilarning shaxsiyati, psixologik holati va pedagogik malakalari birgalikda professional identifikatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu omillar – o‘zaro aloqalarni boshqarish, stressni kamaytirish, dars jarayonida samarali motivatsiya va o‘z-o‘zini rivojlantirish – o‘qituvchining o‘z ishiga bo‘lgan yondoshuvini ijobiy tarzda shakllantiradi. Kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish orqali o‘qituvchilar nafaqat o‘zlarining shaxsiy professional o‘sishiga erishadi, balki ularning dars berish uslubi va metodikasi ham zamonaviy ta’lim talablariga moslashadi. Natijada, talabalarning bilim olish jarayoni va ijtimoiy-ma’naviy rivojlanishi ham yuqori darajaga ko‘tariladi.

Yangi O’zbekistonning 2022-2026-yillarga taraqqiyot strategiyasining to’rtinchi bo’limida quyidagicha ta‘kidlangan, maktablarda ta‘lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish. Maktablarni rivojlantirish Milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta‘limi tizimida qo’shimcha 1,2 million o’quvchi

o’rni yaratish. 2026-yilga qadar o’quv dasturlari va darsliklarni ilg’or xorijiy tajriba asosida to’la qayta ko’rib chiqib, amalda joriy etish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan[3].

Bugungi kunda ta’lim tizimi tezkor o‘zgarishlar va innovatsiyalar davrida faol ishtirok etishni talab qiladi. O‘qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlash ularni yangi pedagogik texnologiyalar va metodlarga ochiq, o‘zgarishlarga tayyor shaxslar sifatida shakllantirishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bolalarning birinchi ta’lim olish bosqichida ularning dunyoqarashi, axloqiy-ijtimoiy qadriyatlarini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Shuning uchun, ularning kasbiy identifikatsiyasi darajasi jamiyatning kelajak avlodini tarbiyalash va madaniy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillarni chuqur o‘rganish va qo‘llash orqali ta’lim tizimida sifatli o‘zgarishlarga erishish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, o‘qituvchilarning shaxsiy va professional rivojlanishi, dars berish jarayonining innovatsion yondoshuvlar bilan boyitilishi umumiy ta’lim tizimining yanada mustahkamlanishi ta’minlanadi.

Boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishga ta’sir etuvchi psixologik omillar va shaxsiy o‘sish dinamikasi ushbu jarayonni tezlashtirib, yuqori natijadorlikni kafolatlaydi. Shundan kelib chiqib, kasbiy identifikatsiyaning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni ko’rib chiqmiz:

1. Shaxsiy o‘zlik va o‘z-o‘zini anglash – o’z qobiliyatlarini real baholash va tan olish, shaxsiy kuchli tomonlar va zaif tomomlarini aniqlash orqali o‘z ustida ishlash, o‘qituvchining kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘z hissiyotlari, intilishlari va ehtiyojlarini aniqlash psixologik o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydi va o‘zgarishlarga moslashuvchanlikni oshiradi.

2. Emotsional intellekt va boshqaruv – emotsional intellekt darajasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar stressni boshqarish, murakkab vaziyatlarda tinchlikni saqlash va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish imkoniyatiga ega. O‘qituvchilar o‘z o’quvchilarining hissiy holatini anglab, ularga mos yondashuvlarni tanlashi hamda sinf ichidagi muhitni ijobiy tomonga o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi.

3. Motivatsiya va ichki istaklar – o’z ishiga bo‘lgan qiziqish, mas’uliyat hissi va professional o‘sishga intilish, o‘qituvchilarning o‘z kasbiga sodiqligini kuchaytiradi. O‘z muvaffaqiyatlarini va kichik yutuqlarini qadrlash, shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun qo‘shimcha energiya manbai bo‘ladi.

4. Doimiy malaka oshirish va innovatsion yondashuvlar – zamonaviy pedagogik metodlar, interaktiv texnologiyalar va raqamli vositalarni qo‘llash, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishga yordam beradi. Muntazam ravishda tashkil etiladigan seminarlar, konferensiyalar va professional treninglar orqali o‘qituvchilar yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi.

5. Reflektiv amaliyot va o‘z-o‘zini baholash – o’z ish jarayonini muntazam tahlil qilish, muvaffaqiyat va xatoliklarni aniqlash orqali professional o‘sishni tezlashtiradi.

[3] Mirziyoyev Sh.M. 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida» Farmoni. T.: 2022.

Tajribali o‘qituvchilar va mutaxassislar bilan olib boriladigan fikr almashish, shaxsiy o‘sishga hamda kasbiy identifikatsiyani mustahkamlashga ko‘mak beradi.

6. Innovatsion pedagogika – innovatsion metodlarni joriy etish, yangi g‘oyalarni amalga oshirish orqali o‘qituvchining o‘z kasbiga bo‘lgan munosabatini yangilab, ijodiy imkoniyatlarni kengaytiradi. O‘qituvchilar va o’quvchilar o‘rtasidagi samarali muloqot, doimiy fikr-mulohazalar va konstruktiv tanqidlar orqali o‘zaro ishonchni oshiradi.

7. Maktab va jamiyatda tutgan o’rni – maktab muhitida ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, hamkasblar bilan hamkorlikni kuchaytirish va rahbarlik tizimining ishonchliligi o‘qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasini rivojlantiradi. O‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashish, guruh sifatida ishlash va yutuqlarni birgalikda nishonlash, professional ruhiyatni mustahkamlaydi.

8. Oila va jamoa ta’siri – o’z oilasi tomonidan ko‘rsatilgan e’tibor va qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchining professional o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mahalliy jamoa va ota-onalar bilan o‘zaro aloqalar, ta’lim jarayonida qo‘llab-quvvatlash tizimlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida ko’rsatilgan omillar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish psixologik omillar, shaxsiy o‘sish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarining o‘zaro ta’siri natijasida amalga oshiriladi. O‘qituvchilarning o‘z kasbiga bo‘lgan sadoqatini oshirish, innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llash va individual psixologik ehtiyojlarga e’tibor qaratish – bularning barchasi sifatli ta’lim muhitini yaratishda muhim omillardir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning aspektlari psixologik, kognitiv va ijtimoiy omillar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirga asoslanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning o‘zini kasb vakili sifatida qabul qilishi, ya’ni kasbiy identifikatsiya shakllanishi, ularning o‘zini-o‘zi anglash, o‘zini baholash va emotsional intellekt darajasiga bevosita bog‘liq bo’ladi. Bu jarayonda shaxsning ichki motivatsiyasi, stressni boshqarish qobiliyati va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari muhim rol o‘ynaydi, chunki ular nafaqat individual rivojlanishni, balki guruh ichidagi hamkorlik va professional munosabatlarni ham kuchaytiradi. Ilmiy yondashuvda motivatsiya, shaxsiy rivojlanish konsepsiyalari va refleksiv amaliyot metodologiyalari keng yoritilib, o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini ta’minlashda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy tajribalar ham asosiy o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, innovatsion o‘quv texnologiyalari, interaktiv metodlar va muntazam malaka oshirish dasturlari o‘qituvchilarning professional identifikatsiyasini mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi. Umuman olganda, ilmiy tadqiqotlar asosida yaratilgan integratsiyalashgan model pedagogik jarayonning sifatini oshirish, shaxsiy salohiyatni rivojlantirish va ijtimoiy muhitni yaxshilash orqali o‘qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasini chuqur va barqaror darajada shakllantirishga xizmat qiladi.

Maqolada ilgari surilgan psixologik va pedagogik tamoyillar asosida boshlangan sinf o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning samarali ilmiy-amaliy strategiyalarini shakllantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu

tavsiyalarni amalga oshirish orqali o‘qituvchilarning professional o‘sishini, o‘z-o‘zini anglashini va emotsional intellektini yanada mustahkamlashga erishish mumkin:

Birinchidan, doimiy malaka oshirish dasturlarini tashkil etish zarur. Zamonaviy pedagogik metod va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, seminarlar, treninglar va konferensiyalar orqali o‘qituvchilarning bilimlarini yangilash ularning professional identifikatsiyasini kuchaytiradi. Bundan tashqari, malaka oshirish jarayonida interaktiv va onlayn platformalardan foydalanish, eksperimental loyihalar asosida yangi uslublarni sinovdan o‘tkazish imkonini beradi.

Ikkinchidan, refleksiv amaliyotni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilarga o‘z ish faoliyatini muntazam tahlil qilish, muvaffaqiyat va xatoliklarni aniqlash hamda shaxsiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish lozim. Bu jarayonda maxsus o‘zini-o‘zi baholash usullari va mentorlik tizimlari samarali qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlarga aylantirilishi kerak.

Uchinchidan, emotsional intellekt va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish zarur. O‘qituvchilarga stressni boshqarish, hissiy muvozanatni saqlash va ijobiy ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish bo‘yicha treninglar tashkil etish, shuningdek, maktab ichidagi psixologik maslahat xizmatlarini yanada kengaytirish tavsiya etiladi. Bu orqali o‘qituvchilarning shaxsiy salohiyati va professional muvaffaqiyatga erishish qobiliyati oshadi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy hamkorlik va mentorlik tizimini mustahkamlashga e’tibor qaratish lozim. Yangi o‘qituvchilarni tajribali ustozlar bilan bog‘lash, o‘zaro fikr almashish va doimiy tajriba almashish tizimlarini rivojlantirish orqali o‘qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasi yanada mustahkamlanadi. Maktab rahbariyati va ta’lim boshqaruvi tomonidan yaratiladigan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, shuningdek, jamoaviy ishlarni rag‘batlantirish ularning professional o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Beshinchidan, individuumga yo‘naltirilgan yondashuvni tatbiq etish muhimdir. Har bir o‘qituvchining shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari va professional intilishlariga mos individual rivojlanish rejalari ishlab chiqish, shaxsiy maslahatlar va individual treninglar orqali ularning o‘ziga xos salohiyatini qo‘llab-quvvatlash tavsiya etiladi.

Ushbu ilmiy-amaliy tavsiyalarni tizimli va integratsiyalashgan shaklda amalga oshirish, nafaqat o‘qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasini kuchaytirish, balki butun ta’lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa kelajakda samarali ta’lim muhitini yaratish va o‘quvchilarning intellektual-sotsiometrik salohiyatini maksimal darajada rivojlantirish imkoniyatini ta’minlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida» Farmoni. T.: 2022.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo’yicha qo’shimcha chora tadbirlar to’g’risida”gi PQ–3775-sonli Qaror, 2018 yil.

3. O‘qituvchilarda kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish: tamoyillar, yondashuvlar va amaliy tajribalar. (2025). *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI*, *3*(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.14759998

4. Батанина Л.С. Самоидентификация личности в условиях культуры массового общества: Дис. ... канд. филос. наук: 09.00.11 - Улан-Удэ, 2004 – 162 с.

5. Гунчина В.А. Феномен профессиональной самоидентификации // Молодой ученый. - 2017. - №15.2. - С. 59-64.

6. Дробижева Л.М. Российская и этническая идентичность: противостояние или совместимость // Россия реформирующаяся. - М., 2002. - С. 213-244.

Global Science Publication